

SURXON VOHASIDA MAROSIMLAR VA RASM-RUSUMLAR

Rahmonov Maxammad Habibullo o'g'li

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi.

+99891-582-25-25 Muhammad19940208@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14589244>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxon vohasi aholisining marosimlari va rasm-rusumlari ularni o'tkazish usullari boshqa tumanlar bilan o'xshash taraflari shuningdek, urfodatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Navro'z, Chaqaloq ko'rdi, tushov kesdi, Kelin chorladi, Navro'z sabo, yuz ochdi, kampir o'ldi.

ЦЕРЕМОНИИ И ИЗОБРАЖЕНИЯ В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ

Аннотация. В данной статье представлена информация об обычаях и традициях жителей Сурханского оазиса, схожих с другими районами.

Ключевые слова: Навруз, Малыш увидел, дождь прекратился, Невеста позвала, Навруз сабо, лицо открыла, старушка умерла.

CEREMONIES AND RULES IN THE SURKHAN OASIS

Abstract. This article presents information about the rituals and customs of the inhabitants of the Surkhan oasis, their similarities with other districts, and their customs.

Key words: Navruz, The baby saw, the dream ended, The bride called, Navruz was over, the face was revealed, the old woman died.

Surxon vohasida keng tarqalgan marosim va bayramlardan biri Navro'z hisoblanib, u yangi yil, orzu-umidlar ushlab sifatida keng nishonlanib kelmoqda. Navro'z-fors-tojikcha «nav»-yangi, «ro'z»-kun so'zlaridan tuzilgan bo'lib, o'zbek tilida yangi kun yoki yangi yilning birinchi kuni degan ma'noni bildiradi. Navro'zning paydo bo'lishi tarixi mohiyati va fazilatlar to'g'risida Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»sida, Abu Rayhon Beruniyning «Kitob-at-tavhim» (Tushuntirish kitobi) va «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida muhim ma'lumotlar berilgan. Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiyning eralar haqidagi risolasini o'qir ekanmiz qiziq misolga duch keldik. Baytul muqaddasdagi diniy marosimlar uning vaqti bilan bog'liq bo'lar ekan.

Abu Rayhon Beruniy «Yodgorliklar»ida ham Navro'z haqida e'tiborli gaplar qayd etilgan.

Ona tilimizga ta'mal toshi qo'ygan mutafakkir shoir MaxmudQoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» asarida ham Navro'z haqida dilbar satrlar uchraydi.

Sharqning yana bir latif allomasi Yusuf Xos Xojibning «Qutag'du bilig» (Saodatga boshlovchi bilim) kitobida «Sharqdan esgan nasm olamni bezash uchun jannat yo'lini ochadi, yerga ifor to'kiladi», deb lutf etgan. Falsafiy mushohadaga boy o'tkir satrlar sohibi Umar Xayyom o'z «Navro'znoma»sida tiriklik haqida o'tli misralar bitgan. Abulqosim Firdavsiy o'zining «Shohnoma» asarida Navro'z haqida qayd etgan bebaho fikrlar asrlar osha xalq qalbida yashab kelmoqda. Bunday ilg'or fikrlarni Nosir Rabg'uziyning «Qissai Rabg'uziy», Sa'di Sheroziyning «Guliston», Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ulug' qalam ahllari ijodida ham kuzatish mumkin.

Mavlono Muqimiyning:
Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar, o'rtoqlar.
Xush bu mahfilda tiriklik ulfati ahbob ila,
O'ynashib gohi tabiatni qilaylik chog'lar-
kabi o'ynoqli, jo'shqin misralari kimga yoqmaydi. Yoki bo'lmasa, Xurshidning:
Chun keldi bahor oyi yuz ochdi bu dam navro'z,
Ko'k maysalar ustiga yetkurdi qadam navro'z,
Qadam ila to'lib dillar, uyg'ondi butun gullar,
Xush isli havosi-la xo'p keldi shinam navro'z- degan qanoatli satrlari qanchalar zavqqa to'lgan.

Qadimgi zamonda quyoshning Xamal burjiga kirishi kecha bilan kunduzning barobar kelishi yil boshi hisoblangan. Bu hodisa eski quyosh yili hisobida 22-martga to'g'ri keladi.

Shodiyona 2 qismga bo'lingan: 1) kichik, 2) katta yoki maxsus Navro'z bayrami deb atalgan. An'analarga binoan kichigidan boshlab tabiatdagi Hamma narsa amalga kiradi. Qadimdan Navro'z munosabati bilan xalqqa tortiqlar ulashilgan, mahbuslarga ozodlik e'lon qilingan.

Navro'z odatda 22-martda boshlanib, 1 hafta-10 kun davom etgan. Unga tayyorgarlik esa ancha ilgari boshlangan. Yangi kiyim tikiladi, hovli va ko'cha maydonlar tozalanadi, sumalak uchun bug'droy ko'kartiriladi. hunarmandlar qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna, ro'zg'or asboblari, kiyim-kechaklar tayyorlashda astoydil mehnat qilib, bayramni yaxshi kutib olishga o'z hissalarini qo'shadilar. Dehqonlar bilan bog'bonlar ekishni boshlab, yerni va daraxtlarni parvarish qiladilar. Odamlar g'am-nadomatlarni, tashvishlarni unutishga harakat qilishadi, urushganlar yarashadi. Qadr-qimmat, olijanoblik, muruvvat kuchayadi. Kasallarni, keksa kishilarni borib ko'rish, ko'nglini ko'tarish, yetim-yesirlarga yordam berish, «Kelin chorladi», «Chaqaloq ko'rdi» kabi odatlar bunga misol bo'la oladi. Uloq, kurash, xo'roz, qo'chqor urushtirish kabi o'yinlar rasmga kirgan.

Hayotimiz turfa rang bo'lsin, degan ma'noda bayram kuni tuxumni yetti rangga bo'yaganlar. Yil davomida qushday yengil bo'laylik, sog'lom yashaylik degan maqsadda alvonch uchganlar, mushoira uyushtirganlar. Yoshlar bahor, hayot, muhabbat, do'stlik, yoshlik haqida qo'shiq kuylaganlar. «Navro'zi ajam», «Navro'zi arab», «Navro'zi bayotiy», «Navro'zi sabo», «Navro'zi xoro» kuylari rasm bo'lgan. Shu kunda tug'ilgan chaqaloqqa Navro'z deb ism qo'ygan.

Jumladan atoqli shoir va tarixchi Ogahiy o'z g'azallaridan bir nechtasini Navro'zga bag'ishlab yozgan:

Qilib oyin mehr og'oz navro'z,
Kelib qish faslin etti yoz navro'z.
Jahon sar to qadam fayzusafoda,
Bo'lib jannatga tagi andoz navro'z.

Bayram mazmuni va yo'nalishi xalqning eng yaxshi odatlari va fazilatlarini, mehnatga bo'lgan munosabatlarini, estetik didini, vatanparvarlik, hamjihatlik kabi ajoyib xislatlarni fozilona jamlash va rivojlantirishga qaratilgan. Bularning bari Navro'z xalq qalbidan chuqur joy olganligidan, u xalqimizning bayrami ekanligidan yaqqol dalolat beradi.

Oilaviy marosimlar ijtimoiy hayot zaruriyati natijasida paydo bo'lib, inson aql zakovati, ma'naviy - axloqiy va huquqiy ehtityojlari asosida vujudga kelgan. Shu jihatdan oilaviy marosimlar uzoq davr davom etgan tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Chunki, «Sharqda qadim - qadimdan oila muqqadas vatan sanalagan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va osoyishtalikka erishiladi. Binobarin, mahalla - yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Oyoq to'yi bola atak - chechak qilib yura boshlagan vaqtda o'tkazilgan. Bu udumni Surxon vohasining ayrim hududlarida «tushov kesdi» ham deb atashgan. Tushov kesdi xaqida rivoyatlar ham mavjud: Ilgarigi zamonlarda bolalar tug'ilganidan yura boshlagan. Qaysi bir payg'ambar zamonida, payg'ambar namoz o'qib o'tirganida yangi tug'ilgan chaqaloq joynamoz oldidan o'ta boshlaganda oyog'iga «tushov sol» deb aytganlar. Shundan buyon bola tug'ilganidan keyin yoshiga yetib yura boshlagan. Bola yurishga harakat qilib toy - toy qila boshlaganda «tushov kesdi» udumini o'tkazganlar.

Bolani birinchi marta mustaqil yura boshlashini oilada katta shodu xurramlik bilan kutib olingan. Ota - ona, qarindosh - urug', do'st - birodarlar ushbu quvonchni turli tarzda to'y qilganlar.

To'y qilish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rilib, so'ngra to'y kuni belgilangan. To'y kuni taklif qilingan kishilar tashrif buyurganlar. Mehmonlar oldiga dasturxon yoyilib turli xil shirinliklar, noz ne'matlar, to'y uchun maxsus boqilgan qo'y so'yilib, go'shtidan tayyorlangan taomlar dasturxonga qo'yilib, ziyofat berilgan.

To'y bo'layotgan vaqtda toy - toy bolaga yangi kiyimlar kiydiriladi va paxtadan ingichka ip qilinib, bolani oyoqlarini yurishga xalaqit qilmaydigan holatda bog'lanadi. Bola asta - sekin toy - toy qilayotganda ikki oyog'i orasidagi ipni «tushov kesildi», «tushov kesildi» deb qaychi bilan nomozxon, yoshi ulug' kishi tomonidan kesiladi va mehmonlar oldida yurdirilgan. Bolaning ustidan pul, tanga, har xil turdagi mevalardan «sachala» ya'ni, «sochqi» sochilgan. Sochqini bolalar qolaversa, bizning ham shunday farzandlarimiz bo'lsin deb, niyat qilib yangi turmush qo'rgan kelin - kuyovlar ham terib olishgan. Oyoq to'yi deb atalgan bu marosim respublikamizning boshqa viloyatlarida ham u yoki bu tarzda o'tkazib kelingan.

Sunnat to'y O'zbekistonda keng tarqalgan to'ylardan biri bo'lib, Surxon vohasining Oq tumshuq, Yalti qishloqlarida sunnat to'y, Bodihavo, Chinor qishloqlarida hatna to'y, Xo'jaasmin, Pastikalon qishloqlarida chukburrin deb atalgan. Bunda musulmon kishi farzandini toq yoshga ya'ni 1, 3, 5, 7 yoshga to'lganda ayrim hollarda esa 9, 11 yoshga to'lganda sunnat to'yini o'tkazganlar. Shuni e'tirof etish kerakki tadqiq etilayotgan davrda vohada sunnat qilinayotgan bolani qo'lidan «qo'li halol»lanmagan deb hattoki suv ham ichmaganlar.

REFERENCES

1. Tursunov S. va boshqa. O'zbekiston tarixi va madaniyati- Surxondaryo etnografiyasi. – B. 94.
2. Tursunov S. Boysun Akadem nashr. – B. 101.
3. Tursunov S, Pardayev T. Surxondaryo – etnografik makon. “Akademnashr” 2012 yil
4. Qobilov E Surxon vohasi xo'jaligi - Toshkent “Akademiknashr”. 2012. 259- bet.

5. Dala yozuvi Boysun tumani Avlod, Panjob, Sariosiyo va Alachopon qishloqlari 2021-2023 yillar
6. Rahmonov, M. (2024). TOQCHI QAVMI AHOLISINING HUNARMANDCHILIGI VA UY-RO 'ZG 'OR KASBKORLIGI. *Modern Science and Research*, 3(5).
7. Rahmonov, M. (2023). SURXON VAHASI TOKCHI XALQINING AN'anaviy turmush TARZI. *Zamonaviy fan va tadqiqotlar*, 2 (4), 720-722.
8. Rahmonov, M. (2024). SURXON VOHASI BOYSUN TUMANI PANJOB QISHLOG 'I AHOLISINING NOMODDIY MADANIYATIDAN. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 6(57), 78-81.
9. Rahmonov, M. (2024). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMI AHOLISIORASIDA XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATI RIVOJLANISHI. *Modern Science and Research*, 3(7).
10. Erkin o'g'li, J. M. (2023). TOPONOMIKANING ASOSIY BO'LIMLARI VA ULARNING TARIX UCHUN AHAMIYATI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 9(2), 121-125.
11. Jumayev, M. (2023). TARIXIY NOMLARNING MANBALARI VA TA'LIQNING ILMIY ASOSLARI. *Zamonaviy fan va tadqiqotlar*, 2 (10), 568-576.
12. Xabibullo o'g'li, M. R. (2024). THE FAMOUS CHOPOGAN OF TAKCHI RESIDENTS OF ALACHOPON. *Journal of Learning on History and Social Sciences*, 1(5), 42-44.